

## MUSIQALI DRAMA TEATRLARIDA OVOZ REJISSYORINING AHAMIYATI

Reymova Shaxribanu

O'zbekiston davlat San'at va madaniyat instituti Nukus filiali

«Texnogen va dramaturgiya san'ati» kafedrası

III-kurs "Kino televideniye va radio ovoz rejissyorligi"

ta'lim yo'nalishi talabasi

***Annotatsiya:** mazkur maolad bugungi kundagi musiqali drama teatrlarda ayniqsa, ovoz rejissyorining tutgan o'рни va uning ma'suliyatlari haqida so'z etiladi. Uning ijodiy topilmalari so'z etiladi.*

***Kalit so'zlar:** Musiqali teatr, sahna, p'esa, spektakl', ovoz rejissyor, dirijyor, bastakor, rejissyor, aktyor, opera, balet, drama, obraz, syujet, ritmika, musiqa, akustika, atmosfera,*

Musiqali teatrlarda ovoz rejissyorligining eng muhim tamoni - bu bastakor, dirijyor va ijrochilar birgalikda yaxshi muhitta til topishidir. Qaysi bir badiiy asar ustida dirijyor, jamoa, solist bilan ish boshlasa, u bastalagan asarning asosiy mazmunini tushunishi g'oyat muxim bo'ladi. Ovoz rejissyori o'sha asarning «makon me'yorlarin» o'rganib chiqadi. «Makon me'yorlari» degenimizda, studiya va zalning akustik talablari, ovoz yozish jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalarining tavsifnomasi tushuniladi. Bu ob'ektiv tiyraslardir. Bundan tashqari, sub'ektiv tiyraslar ham bor. Unga ovoz rejissyorining orkestr bilan ishlashishi kiradi. Ijrochilar bigalikda ishlab, ularni o'ziga qaratib, ishondira olishlari va ularni o'zining talablarina va bir maqsadga itoat qildirishi zarur bo'ladi.

«Musiqqa teatrda so'zdan boshlanadi, ritmda, gapirish melodiyasida davom etadi. Musiqqa teatr tomoshasining asosin tashkil etadi. Agar spektakl' musiqali, ritmik bo'lmasa - bu yomon spektakl'. Musiqqa bizni teatr kundaligida spektakl' atmosferasi deb ataluvchi qalblarga betakror his tuyg'u va yurakga yetib borish sharoitiga olib keladi», ya'ni bu so'zlar musiqa san'atining bir sohasi bo'lishi bilan birga u teatr san'atining ajralmas bo'lagi ekanligin bildiradi. Bu yerda spektakl'dagi dramatik ko'rinishlarning musiqa bilan birligi (sintezi) teran mohiyatga ega ekanligi ko'rinadi. Ayrim vaqtlarda teatrlashtirilgan musiqaning mustaqil bajarilishi ahamiyatga ega bo'lmay qoladi, bu esa aktyorlarning raqsini ochib ko'rsatish p'esa uchun maxsus yozilgan musiqa tomoshabinlarga o'zgacha ta'sir beradi. Dramatik spektakl' uchun musiqa bastakor tomonidan rejissyor, ijrochi va xudojnik bilan birga yaratiladi. Biroq xudojnik tomoshabinlarning olqish va qarsaklariga erisha oladigan obraz yaratsa, bastakor bunday darajaga siyrak erishadi. Sababi, teatr musiqasi spektakl'ni yaratishda uning dramatik va estetik tarafdin ochib berilishida tatbiq qilinadi. Musiqqa drama teatrida bo'ysinuvchan o'rinni egallaydi. Biroq, shunga qat'iy nazar, u spektakldagi hodisalarning mustaqil didini yetgazib berish, badiiy asar nomiga va mazmuniga mos kelishi, syujetlarni rivojlantirishda yordamlashishi, shu jumladan, tomoshabin tuyg'usiga aktiv ta'sir yasash zarur. Aniq va yorqin musiqali obraz harakattagi obrazga ijobiy yordam etadi. Agar opera va balet spektaklida musiqa asosiy o'rinni egallasa, musiqali drama teatrida unga bo'ysinuvchan rollar ajratiladi. Musiqqa ko'rinishning boshli fikrini, asosiy emlikociyasini aniq va toliq ochib ko'rsatadiki va shuning birligida, tomoshabiniga saxnadagi hodisani teranroq tushinishga yordam beradi. Musiqqa saxna ko'rinishining tempo-ritmik yechimini tashkil qilishda muxim o'ringa ega. Shuningdek, musiqa spektakl'ning dramaturgik rivojlanishiga ta'sir yasovchi rioya ; u o'ziga shakl yasovchi rollarni oladi ; saxna ma'nosini ochib ko'rsatadiki ; spektakl'ning qalb - xushini yaratadi. Musiqqa qahramonlarning harakatlarini, syujet mohiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Spektakl'ning musiqali yechimi rejissyorning musiqa madaniyatini va tushunib tinglay bilishligiga, musiqali obrazlarni yarata olguniga aloqador bo'ladi.

Musiqali teatr ovoz rejissyorlarining vazifasi opera va operetta teatrlari ovoz rejissyorlariga qaraganda biroz farqqa ega bo'ladi. Ovozni kuchayttirish texnologiyasining vazifalari va qollaniladigan texnikalari bilan ham ular orasidagi farqlarni ko'rish mumkin. Musiqali drama teatrlarining simfonik orkestr tarkibi opera va operetta teatrlariga qaraganda soni tarafdin kamlik qiladi. Barcha torli asboblari (skripka, violas, violonchel) ayrim hollarda gina o'ndan oshishi mumkin. Bu esa asalata ansambliga to'g'ri keladi, u orkestrga emas.

Orkestrdagi borliq asboblari ovoz berish uchun, ko'pchilik hollarda, har xil audio signallarni ishlov berishni taqazo etadi. Bu barcha texnik yechimlar tembr va fazali tomonlarin oshirishda yordam beradi. Ijrochilar aniq so'z aytib va orasida ariyalar bajaradi. Xor barcha spektakllarda ham qatnashmasligi mumkin. Jonli ijroda bajarganlikdan ayrim hollarda akustika taqozoga javob bermase, yoki aktyorlarning yalla ijro chevarligi pas bo'lsa, sahnada aktyorlarning joylashuv imkoniyatlaridan kelib chiqib, mikrofonlar qo'yiladi. Ko'pincha, yuqoridan tushgan mikrofonlarni tomoshabinlarga bildirmasdan qo'yishga harakat etadi. Biroq, ijrochi mikrofonnan uzoqlab ketsa, tomoshabinlarda yoqimsiz ovozlarni paydo qiladi. Yuqorida aytib o'tilgan saxna panoramasida ovozlarning fazali joylashishi musiqaning dinamik bosqichining biror kishiga yaqin odamlariga mos keladi.

Vokalistlar (vokal ansambli yoki xor) va orkestr o'rtasida dinamik va to'nal birlikni saqlab, zamonaviy musiqa bilan ishlashda asosiy qiyinchilik, akustik va elektr asboblari, sintezatorlar va samplar o'rtasida birlikni o'rnatish uchun yanada xavfsizlikni ta'minlash zarur.

Demak, musiqali dramatik teatrlarda ovoz rejissyori sahnada vokalistlar, xor uchun mikrofon o'rnatib yanada orkestrning kam musiqa asboblari ustida ham dirijyor bilan faoliyat yuritishi zarur bo'ladi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Козюренко Ю. Основы звукорежиссуры в театре. – М.:Искусство , 1987.
2. Авербах Е. Рождение звукового образа. – М.:Искусство, 1998.
3. Завадский Ю.А. Об искусстве театра. – М.: ВТО. 1965.